

“KOINOTGA SAYOHAT”

Toshkent shahar Yunusobod tumani 17-sonli IDUM o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Tadiyeva Soliyaxon Jo‘raboyevna

Annotatsiya: ushbu dars ishlanmada 7-sinf o‘quvchilarida yangi darslik asosida “Koinotga sayohat” mavzusini interfaol usullar yordamida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitish yoritib berilgan. Ishlanmada darslikdagi barcha mashqlar to‘liq bajarilgan va tushuntirilgan. Dars reja asosida to‘g‘ri taqsimlangan.

Kalit so‘zlar: koinot, sayyoralar, zamonaviy usullar, mustaqil fikr, husnixat, so‘z.

Mavzu: KOINOTGA SAYOHAT

Darsning maqsadlari:

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, koinot mavzusida o‘zbek tilida ravon so‘zlashga o‘rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: ona yurtimizga e’tibor, hurmat hissini tarbiyalash, vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish.

T.K.5-Milliy va umummadaniy kompetensiyasini shakllantirish

Rivojlaniruvchi maqsad: o‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini, o‘z fikrini erkin ifodalash malakasini rivojlantirish.

T.K.6- ijtimoiy tarmoqlardan mavzuga doir qo‘shimcha ma’lumotlar haqida xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasini shakllantirish.

Darsning jihozlanishi va vositalari. Darslik, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar, “Galaktika bo‘ylab sayohat”, “Chigil yozdi”, “Bumerang”, “Zehni zukko”, “Husnixat”, “Kim topqir”, “Qarsak” metodlari.

Dars rejasi:

	Dars rejasi	Vaqti
--	-------------	-------

/r		
	Tashkiliy qism.	3 daqiqa
	Ma'naviyat daqiqasi	3 daqiqa
	O'tilgan mavzuni so'rash.	7 daqiqa
	Uy vazifasini tekshirib baholash.	2 daqiqa
	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
	Mustahkamlash mashqlari	10 daqiqa
	Darsni yakunlash. O'quvchilar bilimini baholash	3 daqiqa
	Uyga vazifa berish.	2 daqiqa

DARS SHIORI:

Fan ko'ksida qil parvoz,
Qancha bilsang, shuncha oz!



Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash, sinf tozaligini kuzatish, o'quvchilar diqqatini jalb etish.

Darsda o'quvchilar **“Rag‘bat” kartochokalari** bilan rag‘batlantirilib boriladi. Dars oxirida eng ko‘p rag‘bat egasi taqdirlanadi va rag‘batlar asosida o'quvchilar baholanadi.


O'quvchilar diqqatini jalb etishda **“Chigil yozdi”** usulidan foydalanamiz. Bunda o'quvchilarga qiziqarli va oson savollar beriladi. **Masalan:** Bugun chorshanba ertadan keyin qanday kun?...

Ma'naviyat daqiqasi: Bunda o'quvchilar bilan yil nomi, bayramlar va mashhur shoir hamda yozuvchilar bilan bog‘liq ma‘lumotlar takrorlab olinadi. Kun yangiliklari so‘raladi.

Bu yil yurtboshimiz tomonidan **“Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”** deb e‘lon qilindi.


Dars **“Galaktika bo‘ylab sayohat”** usuli orqali tashkil etiladi.

Bu usul “Usul ichida usul” deb nomlanadi. Bunda galaktika bo‘ylab sayohatga chiqiladi. Galaktikamizga dars rejasi joylashtiriladi



O‘tilgan mavzu va uyga vazigani so‘rash.

O‘tilgan mavzu adabiy o‘qish bo‘lgan va bu mavzu “Bumerang” usuli orqali mustahkamlanadi.



Yangi mavzu bayoni: 1. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

Audiomatn eshittiriladi. Sayyoralar yulduzlardan keskin farq qiladi. Yulduzlar issiqlik va yorug‘lik tarqatadigan, issiq gazlardan iborat ulkan sharlardir. Sayyoralar esa nisbatan kichkina osmon jismlari bo‘lib, yulduzlardan chiqayotgan nurlarni o‘zida aks ettiradi. Keling, gapni Quyoshga eng yaqin sayoralardan boshlay qolaylik. Ularning dastlabkisi Merkuriydir. Uning diametri — 4 878 km. Bu ko‘rsatkich, taxminan, Atlantika okeanining eniga teng keladi, ya'ni Yer o‘lchamining bir bo‘lagi, xolos....

“Zehni zukko” usuli orqali yuqoridagi jadval to‘ldiriladi.

“DIQQAT QILING” usuli. Bu usulda darsning Grammatik qoidasi tushuntiriladi.

... + -sh/-ish + bu qo‘shimchalar birgalik nisbat qo‘shimchasi bo‘lib, ikki va undan ortiq kishi tomonidan ish-harakat bajarilganligini bildiradi. Masalan: ekishdi.

Shuningdek, ushbu qo‘shimchalar -kerak, -zarur, mumkin so‘zlaridan oldin ham qo‘llanadi. **Zarur, kerak, mumkin so‘zlari modal** so‘zlardir.

2. O‘ylang va toping. Yozing. Bunda “Husnixat” usuliga murojaat etamiz. Kimning husnixati chiroyli bo‘lsa, a’lo baho oladi.

Namuna: Men kosmosga parvoz qilishdan oldin juda ko‘p o‘qishim kerak.

1. Men kosmosga parvoz qilishdan oldin juda ko‘p o‘qishi... .
2. Sen kosmosda ilmiy-tadqiqot olib bor... .
3. U yigirma bir soatdan ko‘proq Oyda bo‘lish... .
4. Kosmonavtlar fazoga uchishdan oldin maxsus ko‘rikdan o‘tish... .
5. Biz “Koinot olamida” kitobidan qiziqarli ma’lumotlar olish... .

3. O‘qing. “Zanjir” usuli orqali ketma-ketlikda matn o‘qiladi.

Yupiterning sirti katta hajmdagi bulutlar bilan o‘ralgan. U eng ulkan sayyora bo‘lib, Yerdan 1300 marta katta. Marsda atmosfera zich emas. Bu sayyora har doim yerliklarni qiziqtirib kelgan. Hozirgacha izlanishlar davom etmoqda. Merkuriy Quyoshga eng yaqin joylashgani uchun cho‘g‘day qizib turadi. Quyosh tizimi Quyosh va uning atrofida aylanayotgan barcha kosmik jismlar, sayyoralar, ularning yo‘ldoshlari va asteroidlarni o‘z ichiga oladi. Ular doimo aylanib turadi. Muz va changdan iborat halqa o‘rab turadigan sayyora – Saturn. Uran va Neptun sirtlaridagi harorat pastligi bilan bir-biriga juda o‘xshaydi. Chunki ular Quyoshdan juda uzoqda. Faqat Yerdan nafas olsa bo‘ladigan atmosfera mavjud.

Mavzuni mustahkamlash. Bunda darslikdagi 4-topshiriq bajariladi.

4. O‘ylang, toping va yozing.

Namuna:

Merkuriy Quyoshga eng yaqin sayyora bo‘lgani uchun cho‘g‘day qizib turadi.

1. ... Quyoshga eng yaqin sayyora bo‘lgani uchun cho‘g‘day qizib turadi.
2. Muz va changdan iborat halqa o‘rab turadigan sayyora –
3. ... eng katta sayyora bo‘lib, sirti katta hajmdagi bulutlar bilan o‘ralgan.
4. Yerliklarni hamisha qiziqtirib kelgan sayyora –
5. Quyoshdan juda uzoqda joylashgan sayyoralar – ... va

5. O‘ylang va toping. Gapiring. Bunda “Kim topqir” usulidan foydalanamiz.

Bu topshiriqni o‘quvchilar mustaqil bajaradilar. Kim ko‘p so‘z topsa, bir rag‘batga ega bo‘ladi. quyosh, venera, yer, yupiter, mars, uran, neptun, pluton, merkuriy...

“Qarsak” usuli. Bunda yangi mavzu mustahkamlanadi. O‘qituvchi mavzuga oid so‘zlarni aytsa o‘quvchilar qarsak chaladi. Boshqa so‘z aytsa qarsak chalmaydi.

Darsni yakunlash. Dars yakuni rag‘batlar sanalib, o‘quvchilar baholanadi. Eng ko‘p rag‘bat egasi kitob bilan taqdirlanadi.

Mustaqil ish:

Sayyoralarning joylashuvi rasmini chizing.